# “Xitoyga eltuvchi Qoraxoniy yo'llari: Xitoy-Turk munosabatlari tarixi” nomli monografiya nashr etildi

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi Dilnoza Duturayevaning "QARAKHANID ROADS TO CHINA: A HISTORY OF SINO-TURKIC RELATIONS" (Xitoyga eltuvchi Qoraxoniy yo'llari: Xitoy-Turk munosabatlari tarixi) dab atalgan ilmiy monografiyasi Yevropaning eng nufuzli nashriyotlaridan biri bo'lgan Brill Academic Publisher nashriyoti tomonidan chop etildi.

HdO

# Qarakhanid Roads to China

## *A History of Sino-Turkic Relations*

Dilnoza Duturaeva

BRILL

Muallif bu mavzu ustida ko'p yillar izlanishlar olib borib, bugungacha tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan mavzu - Qoraxoniy davri Xitoy yozma manbalari negizida mo'gullardan oldingi turk dunyosi va uning Chin Imperiyasi bilan munosabatlari tarixiga oydinlik kiritgan. O'zbek xalqining etnik kelib chiqishida negiz o'rin egallagan Qoraxoniylar jamiyatining Xitoy ko'zi bilan qanday baholanganini tahlil qilib bergan.

Ushbu asarida muallif X-XII asrlarda O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi transkontinental tarmoqlarda olib borilgan diplomatiya, savdo-sotiq va geografiyani qayta ko‘rib chiqib, Tang sulolasining qulashi va mo'g'ullarning yuksalishi o‘rtasidagi davrda “Ipak yo‘li inqirozi” tushunchasiga qarshi chiqadi. Arxeologik ma'lumotlar bilan birga keng ko'lamli islom va xitoy manbalaridan foydalangan holda, muallif tomonidan keltirilgan ma’lumotlar Ipak yo'llari bo'ylab o'zaro ta'sirning murakkabligini ko’rsatib, Qoraxoniylar dunyosi va Sung sulolasi davridagi Xitoyning qo'shni mintaqalar bilan munosabatlari haqidagi tushunchalarimizni yanada boyitishiga xizmat qiladi.

Kitob bilan quyidagi ilova orqali tanishsish mumkin:

https://brill.com/view/title/61452?contents=toc-50344